

PSIXOLOGIK JIHALARNING IQTISODIY JARAYONLARGA TA'SIRINI TAHLIL
QILISH ZARURATI

HAYITOV XURSHID XUDOYQULOVICH

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI 2-BOSQICH
MAGISTRANTI.

Annotatsiya: *Maqolada iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan inson omili turli psixologik holat va hissiyotlarga bog'liqligi, shuningdek inson qararlari ko'pincha faqat iqtisodiy manfaatga emas, balki psixologik omillarga ham asoslanishi hamda psixologik jihatlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilish zarurati, uning ilmiy asosi va amaliy ahamiyati batafsil yoritilgan.*

Psixologik jihatlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri chuqur va ko'p qirrali. Ushbu omillarni hisobga olmaslik iqtisodiy siyosat va korporativ strategiyalarda kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, psixologik tahlilni iqtisodiy modellashtirishga kiritish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, 2008 yilda qabul qilingan «Yoshlar yili» Davlat dasturining «Ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash» deb nomlangan 3-bo'limi o'z ichiga maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tashkil topgan yosh avlodni yuksak axloqiy ma'naviy fazilatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab olgan. Shu sababdan ham, mustaqil fikrlaydigan bugungi kun yoshlari iqtisodiyot fanlarini chuqur o'zlashtirib, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashi yo'lida O'zbekiston va o'zbek xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishni maqsad qilib olishi, inqirozga qarshi belgilangan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli uddalashib, o'zbekning XXI asrdagi mo'jizaviy iqtisodiyotini yaratmog'i lozim.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida erishilgan bilimlarni chuqur egallasak iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli ortib borib, mamlakatimizning ham iqtisodiy tafakkuri yuksak insonlari orqali jahon hamjamiyatidagi nufuzi ortib boradi.

O'quvchilarda yangicha iqtisodiy fikrlarini shakillantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir yoshga o'z mehnatini sarflash sohasi va

shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish biz qurayotgan erkin demokratik fuqarolik jamiyatiga xosdir. Qolaversa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida biz moddiy shart-sharoitlar yaratishimiz, ya'ni mulkini davlat tasarrufidan chiqarishda va xususiy lashtirishda, faol ishtirok etishimiz lozim, chunki kishilarda mulk egaligini ta'minlasagina sog'lom raqobatchilik muhitini yaratsagina bu to'g'rida odamlarimizda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirilsagina yangi iqtisodiy tizimga ortiqcha aziyatlar, qiyinchiliklar chekmay o'tib olishimiz va yangicha iqtisodiy tafakkur yashash tarzimizga aylanishi mumkin. Buni biz bozor munosabatlari asosida yashayotgan, rivojlanib borayotgan o'nlab mamlakatlar va xalqlar hayotida ko'ryapmiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi zamonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ko'p jihatdan odamlarning iqtisodiy bilim bilan qurollanishiga, iqtisodiy idrok kuchiga ega bo'lishlariga bog'liq bo'lib qoladi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov bugungi kundagi mamlakatimiz, jumladan, ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalar borasida fikr yuritar ekanlar: «Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlarini, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat» deb alohida ta'kidlaydilar.

«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarining asosiy mazmuni va unda ko'rilgan masalalar bo'yicha keng tasavvur va bilim hosil qilishda hamda ta'lim samaradorligini oshishida o'qitishning pedagogik-psixologik usullarini ahamiyati beqiyos.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, quyidagicha yondashuv usullari orqali masalani hal qilish borasidagi nazariyalarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

- o'quvchilarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ta'sir oqibatlarini to'g'risida keng tushuncha va tasavvurlar hosil qilish;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri, uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'luvchi omillar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish, uning ta'sir oqibatlarini bartaraf etishda faol va ongli ravishda ishtirok etish;
- mamlakatimiz har bir fuqarosining burchi ekanligini anglash mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mavjud muammolar


to'g'risida tasavvur hosil qilish va ularni hal etish yo'llari borasida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish to'g'risida hosil qilingan bilimlarni amaliyotda qo'llash borasida dastlabki o'quv-amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;

- respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda ular natijasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning barchasi inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadiga yo'naltirilganligini anglash, yoshlarning jamiyatimizdagi o'rni va rolini chuqur his qilishni ta'minlash asosida o'quvchi va talabalarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish kabi vazifalarni bajarishda dolzarbligini namoyon etadi.

Prezidentimiz o'z asarlarida moliyaviy inqiroz holati va uning ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir fikrlarini davom ettirib, navbatdagi xulosani ta'kidlab o'tdilar: «Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi» .

Respublikamizda tarkibiy qayta o'zgartirishlar va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan yangilash, Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida ishlab chiqarish korxonalarini va tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ularning barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlari natijasida 2009 yilning birinchi choragida 54 ta ishlab chiqarish ob'ekti foydalanishga topshirildi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i o'tgan yilning tegishli davrida 35,1 foiz o'rniga 36,2 foizgacha; xizmatlar sohasining ulushi 44,4 foiz o'rniga 45,5 foizgacha ko'paydi. Joylarda 208,6 mingta yangi ish o'ni yaratildi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar eksporti hajmi 6,1 foizga o'sib, tashqi savdo aylanmasining ijobiy salbdosi ta'minlandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotining ayrim ko'rsatkichlari, foiz



Shuningdek, statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2009 yilning birinchi choragi yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda:

- yalpi ichki mahsulotning o'sishi 7,9 foizni;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi 9,9 foizni;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi 12,5 foizni;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 5,7 foizni;
- xizmatlar ko'rsatish hajmining o'sishi 16,6 foizni;
- qurilish ishlari hajmining o'sishi 12,1 foizni tashkil etdi.

Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan yuqori bo'lmadi. Investitsiyalarning 31,4 foizga, shu jumladan, to'g'ri-to'g'ri xorijiy investiyalarning 2,5 baravar ko'payishiga erishildi.

Xulosa qilib aytganda agar biz O'zbekiston kelajagigi, taqdiriga o'zimizni javobgar ekanligimizni e'tirof etsak, har birimiz uning taraqqiyoti vositasi bo'lmish iqtisodiy fanlarni chuqur egallamog'imiz, yangicha iqtisodiy tafakkur asosida yashashni o'z burchimiz deb bilmog'imiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarning iqtisodiy tafakkurini to'g'ri tarbiyalash, ularda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faol munosabatni shakllantirish, ishbilarmon, ruhan tetik fuqarolarning rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarurati tadqiqot muammosini aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning

yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. / Tuzuvchilar: prof. B.Yu.Xodiyev, prof. A.Sh. Bekmurodov, dots. U.V. G'ofurov, dots. B.K. Tuxliyev. – T., 2009. – 120 b.

2. Borisov Ye.F. *Ekonomika: ucheb.* – M., 2008. – 320 s.

3. Tojiboyeva D., Xo'jayev N., Avalova G. *Iqtisodiy pedagogika: O'quv qo'llanma.* – T., 2008. – 256 b.

4. Sherbatix Yu.V. *Psixologiya predprinimatelstva i biznesa: Uchebnoye posobiye.* – SPb., 2008. – 304 s.

5. Hayitov O.E., Ochilova G.O. *Tadbirkorlik psixologiyasi: O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M.Karimovning umumiy tahriri ostida.* – T., 2008. – 144 b.

6. Thaler, R. (2015). *Misbehaving: The Making of Behavioral Economics.* W. W. Norton & Company.

7. Federal Reserve. (2009). *Financial Crisis Impact on Consumer Behavior.*